



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-fevral

92-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “KfW” banki (Germaniya Federativ Respublikasi) ishtirokidagi “Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi PQ–18-son qarori ijrosi haqida”gi 81-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

Sog‘liqni saqlash sohasida Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati bilan moliyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish, hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarini zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlash va ulardan samarali foydalanishni ta‘minlash, Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan “KfW” bankining (Germaniya Federativ Respublikasi) mablag‘larini jalb qilgan holda Orolbo‘yi mintaqasi, xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda Xorazm viloyatida sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “KfW” banki (Germaniya Federativ Respublikasi) ishtirokidagi “Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi PQ–18-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 81-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 81-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi PQ–18-son qarori bilan:

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Germaniya Federativ Respublikasi Hukumati o‘rtasida 2019-yil 21-22-may kunlari ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan hukumatlararo muzokaralar natijalariga ko‘ra “Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — Loyiha) amalga oshirish uchun qarz va grant ajratish bo‘yicha kelishuvga erishilgani;

O‘zbekiston Respublikasi va “KfW” banki o‘rtasida 2023-yil 19-may kuni Loyihani moliyalashtirish uchun 5,5 yillik imtiyozli davr bilan 12,5 yil muddatga jami 30 million yevro miqdorida qarz bitimi hamda 2 million yevro miqdorida grant bitimi imzolangan ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

“Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

“Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasini amalga oshirish doirasida “KfW” bankining qarzlarini qaytarish, shu jumladan, qo‘shimcha haq va foizlar to‘lashning prognoz jadvali 2-ilovaga muvofiq;

“Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasi doirasida Qoraqalpog‘iston Respublikasi tibbiyot muassasalari uchun xarid qilinadigan tibbiy jihozlar taqsimoti 3-ilovaga muvofiq;

“Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasi doirasida Xorazm viloyati tibbiyot muassasalari uchun xarid qilinadigan tibbiy jihozlar taqsimoti 4-ilovaga muvofiq;

“Orolbo‘yi mintaqasida tibbiy xizmat sifatini oshirish” loyihasi doirasida xarid qilinadigan maxsus avtotransport vositalarining hududlar bo‘yicha taqsimoti 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Sogʻliqni saqlash vazirligi Loyihani oʻz vaqtida amalga oshirish hamda muvofiqlashtirish, shuningdek, “KfW” bankining qarz va grantlaridan maqsadli va samarali foydalanish boʻyicha masʼul ijro etuvchi organ hisoblanishi;

Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi “Xaridlar markazi” davlat muassasasi Loyihani amalga oshirish doirasida tuzilgan shartnomalar boʻyicha yuk qabul qiluvchi kontragent hisoblanishi;

Loyiha doirasida xarid qilinadigan tibbiy asbob-uskuna, jihoz va vositalar tanlov savdolari eʼlon qilingunga qadar mustaqil ekspertlarni jalb qilgan holda tibbiyot muassasalarini jihozlash meʼyorlari asosida har bir muassasa kesimida tahlil qilinishi; bunda tahlillar natijasiga koʻra Sogʻliqni saqlash vazirligi tomonidan xarid qilinadigan tibbiy asbob-uskuna, jihoz va vositalarning roʻyxati, miqdori va texnik tavsiflariga oʻzgartirishlar kiritilishi mumkinligi;

“KfW” bankining qarz mablagʻlarini qaytarish, shu jumladan, qoʻshimcha haq va foizlar toʻlash, boshqa toʻlovlar bilan bogʻliq xarajatlar Oʻzbekiston Respublikasining respublika budjeti mablagʻlari hisobidan qoplanishi;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 16-iyundagi “Aholiga tez tibbiy yordam koʻrsatish tizimini takomillashtirish toʻgʻrisida”gi PQ-283-son qaroriga 6-ildavaga muvofiq oʻzgartirish kiritilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari – iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻi A.Abdusalomov hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha oʻrinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov